

Abdulla Oripov She'riyatining Lingvopoetik Xususiyatlari

*G'aniyev Bekzod Baxronovich*¹

Annotatsiya: O'zbek xalqi azaldan shoirtabiat xalq, uning tuprog'idan tortib yaprog'igacha shoirdir. Shuning uchun ham u farzandlariga she'riyat kabi teran, she'riyat kabi serma'no, bir-biriga uyqash ismlar qo'yadi. U to'y qilsa, shodliklarini she'rga solib "yor-yor" aytadi. Hattoki azada ham hasratlarini she'rga aylantirib bo'zlaydi.

Temur tig'i etmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher

deb yozgan o'zbek xalqining sevimli farzandi, shoir Abdulla Oripov

Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: shoir mahorati, "Obraz", "aks", "Uchinchi odam", "Noma'lum odam", ona tabiat, "Ko'zlarim yo'lingda", dili orom.

San'at olamida gul ko'p, chaman ko'p. O'zbek adabiyotida o'zining chamanzorini yarata olgan buyuk ijodkorlardan biri Abdulla Oripovdir. O'zbekiston Qahramoni, inson qalbining musavviri Abdulla Oripovning ko'plab asarlari millionlab insonlar qalbida joy olgan. Abdulla Oripovning she'rlarida olam va odam, inson va tabiat, hayot va o'lim, yaxshilik va qabohat, orzu va armon, mehr va nafrat, adolat va haqsizlik kabi manosabatlar o'zaro kurashadi.

Abdulla Oripov she'riyatining lingvopoetik tahlili uning badiiy so'z imkoniyatidan mohirona qo'llaganligini ko'rishimiz mumkin.

Inson qalbi bilan hazillashmangiz

Unda millat yashar, unda til yashar.

Unda avlod faxri yashaydi, so'zsiz

Unda istiqomat qiladi bashar.

Mazkur to'rtlikda keltirilgan unda so'zi vositasida shoir anafora san'atidan unumli foydalangan.

Ushbu so'z shunchaki takror emas, balki lirik qahramon fikrini ta'kidlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Inson qalbi shunday ummonki, unda millat, tili, ona, avlod faxri, umuman, butun bashariyat yashashini ta'kidlamoqda.

Gohida sevinib, gohi g'amdadir

Ishq uzra yozardim, men erkin qanot.

Bilmadim qaysi kun, qaysi damdadir

Mening qismatimga chang soldi sayyod.

Yuqoridagi to'rtlikda esa shoir. "Gohida sevinib, gohi g'amdadir" deganda tazod-(zid ma'noli so'zlar-antiteza) san'atidan unumli foydalangan.

¹ Xatirchi tumani Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limiga qarashli 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi, magistr



Ishq uzra yozardim, men erkin qanot

Mening qismatimga chang soldi sayyod.

Misralarida metaforani qo'llaydi. Shoirning birgina onasi Furdixol momo xotirasiga bag'ishlangan "Onajon" she'ri orqali kitobxon uning falsafiy qarashlari noqadar teran va boy ekanligining shohidi bo'ladi.

Garchi fano har kimsaga,

Azaliy bir qismatdir.

Lekin, ona tiriklik ham,

Bilsang yarim hikmatdir.

Lirik qahramon "bu foniy dunyo hammaga berilgan qismat, lekin onajon tiriklik ham yarim hikmatdir"-deya xitob qiladi. Onasining erta vafot etganiga afsus-nadomatlar qiladi. Onasining o'rni har qadamda, har lehzada bilinayotganligini ta'kidlaydi.

U kun chetda chetda oh chekardim,

G'ussalarning dastidan.

Sen otamga pul beribsan,

Yostig'ingning ostidan.

Aytibsanki onasizlik,

Kelmasin hech o'yiga.

Sarf qilingiz menga emas,

Abdullaning to'yiga.

O o'g'lingga sen shafqatni,

Bilardingku onajon!

Bundan ko'ra bag'rim o'ysang

Bo'lardiku onajon!

Zarragina rahm etgali

Sabring menga yo'qmidi?!

Onajonim bundan o'zga

Jabring menga yo'qmidi?!

Yo'qmidi hech o'zga gapiring,

Nola qilib so'yilasang.

Nahot, axir so'nggi dam ham,

Farzandlaring o'yilasang.

Ha! Har bir o'zbek onasi farzandini oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazarkan o'lar chog'ida ham farzandlarini, faqat va faqat farzandlari uchun jon kuydiradi. Ularning baxtli yashashlarini istaydi. Shoir ana shu she'rida nafaqat o'zining ruhiy holatini, balki ana shunday og'ir judolikni boshidan o'tkazgan insonlar qismatini, ularning ruhiy iztiroblarini go'zal chizgilardan ifoda etgan.

Abdulla Oripov she'riyatining qudrati ham uning yuksak darajadagi badiiyligidadir. Lekin uning she'rlarida sun'iy badiiylik, zo'rma-zo'raki o'xshatishlar, mantiqqa zid bo'lgan jonlantirishlar orqali badiiyat yaratilmaydi. Uning har bir iborasi, har bir tashbehi ayni haqiqatdir. Mana, uning "Bahor" she'rida shunday misralar bor:



Qaydadir shoira kuylaydi behol,
Mening ham oy kabi ko'nglim yarimta².

SHOIR –XALQ QALBINING TARJIMONI

Shoirning xalqqa, xalqning esa shoirga bu qadar dildosh va sirdosh qilgan shoir fazilatlari, o'ziga xos xususiyatlari nimada ekan? “Abdulla qaysi bir temaga qo'l urmasin, nima haqda she'r yozmasin, uning ko'zi oldida Ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'lga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik”³, deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov.

Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos tomonlari haqida so'z yuritilar ekan, uning she'rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir. Shoir o'z qalbini xalq qalbiga tarjima qiladi, tarjima uchun esa shubhasiz so'z kerak. Bu so'z esa xalqning o'z so'zi bo'lmog'i lozim. To'g'ri, hamma shoir ham o'z ona tilida she'r yozadi. Lekin ayrim yo'nalishdagi shoirlar borki, o'zbek tilida o'zbekcha bo'lmagan she'rlar yozadilar. Ularning she'rini oddiy xalq tushunmaydi. Ularning lirik qahramoni butun dunyoga, XX asrga qarata falsafa so'qiydi. Bunday “muallaq gaplardan” to'ygan shoirning o'zi ham shunday yozadi:

Iqbol deb behuda chekasan yohu,

Ohing bu – folbinning daraklaridir.

Asrim, asrim deysan asring nima u?!

U — to'zg'oq kalendari varaqlaridir⁴[7].

Shoir bu she'rida havoyi gaplardan ko'ra yonginangda turgan insonning orzulariga oshno, dardlariga hamdard bo'lishga chaqiradi. Yuqorida keltirilgan she'rdagi quyidagi misralar buni yaqqol tasdiqlaydi:

Inson deb falakka hayqirmoq nega,

Inson yoningdaku, u mening qo'shnim[8].

Axir, paxtakor-paxtakor” deb siyqa nom bilan siylangan kolxozchining, ishchining, mexanizatorning ham qalbi bor, ularga ham ma'naviy rizqu ro'z – she'riyat kerak.

Xalqqa tushunarsiz, o'ta donishmandlik da'vosida, turli xil eksperimentlar shaklida yozilayotgan she'rlar to'lib-toshib yotar ekan, ko'pchilik hamisha Abdulla Oripov she'rlarini sog'inib, Erkin Vohidovga ko'z tutib, Omon Matjonni izlab yursa hech ajab emas.

Abdulla Oripov yoshlar bilan bo'lgan bir suhbatda shunday deydi: “O'zbek tilida eshakni eshak deyiladi, lekin ba'zi shoirlar eshakni eshak deyishdan or qiladi”[9].

Ha, shoir xalq so'zi bilan xalq qalbini kuylaydi, kuylaganda dilrabo ohang bilan, yonib, o'rtanib kuylaydi.

Kulma, kulma, nega kulasan,

Xijolat chekkanning holiga.

Nega qo'l uzatding bir kambag'alning

O'g'rilardan qolgan moliga.⁵

XULOSA

Abdulla Oripov she'riyati, xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e'tirof etganidek, o'zbek poeziyasida muhim o'ringa, katta salmoqqa ega bo'lgan she'riyatdir.

² Oripov A. Yillar armoni. 127-b.

³ Qo'shjonov M. Kamalakday serjilo – Abdulla Oripov. Yillar armoni. 3-b.

⁴ Oripov Abdulla. Yillar armoni., 1984, 436-b.

⁵ Oripov A. Yillar armoni. 33-b.



Uning she'riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so'ylash, insonning rangin tuyg'ularini rassomona ko'z bilan ilg'ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi – shoir she'rlarining takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlaridandir.

Abdulla Oripovdek shoirning qalbi ona zamin yanglig' saxovatlidir. Zamin bag'rida turfa xil gullar ochiladi, tikanlar o'sadi. Shu kabi shoirningqalbi ham o'z tuyg'ularidan turfa xil gullar – she'riyat gullarini armug'on etadi.

Chindan ham Abdulla Oripovning she'rlari mohiyat e'tibori bilan voqe bo'lgan she'rlardir. Biz uchun, "shoir bir yurt" bo'lgan O'zbekiston uchun shoir ham, uning she'rlari ham hamisha aziz va ardoqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farg'ona davlat pedagogika instituti O'zbek filologiyasi fakulteti 5-kurs talabasi Maqsuda Ergashevaning diplom ishi. Ilmiy rahbar: filologiya fanlari kandidati , dotsent Muhammadjon Madg'oziyev.
2. Oripov Abdulla. Yillar armoni. G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1984. 216-b.
3. Rahimjonov Nu'mon. Qalbning to'rt fasli – "O'zbekiston madaniyati" gaz., 28 avgust 1979 yil.
4. Oripov Abdulla. Yillar armoni, 447-b.
5. Oripov Abdulla. Yillar armoni, 1984, 216-b.
6. Qo'shjonov M. Kamalakday serjilo – Abdulla Oripov. Yillar armoni. 3-b
7. Oripov Abdulla. Yillar armoni., 1984, 436-b.
8. Oripov Abdulla. Yillar armoni., 1984, 437-b.
9. A. Oripovning 1981 yil avgust oyida bo'lib o'tgan "YoShsh ijodkorlarning respublika seminari2 mashg'ulotidagi suhbatidan
10. Oripov A. Yillar armoni. 33-b.
11. Oripov A. Yillar armoni. 223-b.
12. Oripov A. Yillar armoni. 234-b.
13. Xudoyberganov N. Cho'qqilar chorlaydi. T., 1975, 115-b.
14. Xudoyberganov N. Ehtiros to'lqinlari. G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1970. 120-b.
15. Xudoyberganov N. Ehtiros to'lqinlari. G'.G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1970. 121-b.
16. Xudoyberganov N. Cho'qqilar chorlaydi. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1975.
17. Oripov A. Yillar armoni. Toshkent, 1984. 126-b.
18. Oripov A. Yillar armoni. Toshkent, 1984. 122-b.
19. Oripov A. Yillar armoni. Toshkent, 1984. 49-b.
20. Oripov A. Yillar armoni. Toshkent, 1984. 173-b.
21. Oripov A. Yillar armoni. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984. 142-b (keyingi barcha she'riy parchalar shoirning shu kitobidan olingan)
22. Oripov A. Yillar armoni. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984. 143-b (keyingi barcha she'riy parchalar shoirning shu kitobidan olingan)



23. Oripov A. Yillar armoni. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984. 70-b (keyingi barcha she'riy parchalar shoirning shu kitobidan olingan)
24. Oripov A. Yillar armoni. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984. 54-b (keyingi barcha she'riy parchalar shoirning shu kitobidan olingan)
25. Xudoyberganov. Cho'qqilar chorlaydi.

